

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN JISMONIY TARBIYA
FANIDAN MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST
TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN JISMONIY TARBIYA FANIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI (TAFSILOTLARI)

Mazkur spetsifikatsiya jismoniy tarbiya o'quv fanidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari yo'riqchilarini attestatsiyadan o'tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning jismoniy tarbiya fani bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasiga qabul qilinadigan qarorlar asoslangan bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 692-son Qarori.

III. Baholash qamrovi

Jismoniy tarbiya fani yo'riqchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, hammasi bo'lib 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun jami 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan *yagona to'g'ri javobni talab*

qiladigan test topshiriqlari(Y1), moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
JISMONIY TARBIYA		35 ta
1. Valeologiya (1 – 3 savollar)		
Sog'lom turmush tarzi asoslari	– sog'lom turmush tarzini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish – sog'liqni mustahkamlash mashqlarini o'tkaza olish – sog'lom hayotiy odatlar va shaxsiy sog'liqni saqlash – sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantiradigan ilmiy asoslangan, pedagogik va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish	3 ta
2. Gimnastika turlari va qoidalari (4 – 8 savollar)		
Gimnastika turlari va qoidalari	– gimnastikaning asosiy turlarini bilish – gimnastikaning asosiy turlarini farqlash – mashqlarni metodik jihatdan qo'llash – texnika va qoidalaridagi xatolarni tahlil qilish – yangi mashqlar kombinatsiyalarini yaratish – mashqlarning samaradorligini baholash	5 ta
3. Harakatli o'yinlar (9 – 13 savollar)		
Harakatli o'yinlar	– harakatli o'yinlar turlarini bilish – harakatli o'yinlarni turlarini tavsiflash – o'yinlarning yosh va tayyorgarlik darajasiga mosligini tushunish – o'yinlarni dars jarayonida qo'llash – jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o'yinlar rolini tahlil qilish	5 ta
4. Yengil atletika turlari va qoidalari (14 – 18 savollar)		

Yengil atletika turlari va qoidalari	– yengil atletika turlarini bilish va farqlash – yurish turlari va qoidalari ni bilish va farqlash – yugurish turlari va qoidalarini bilish va farqlash – sakrash turlari va qoidalari ni bilish va farqlash – uloqtirish turlari va qoidalari ni bilish va farqlash – musobaqa qoidalariga muvofiq qo'llash – texnika va taktika bo'yicha xatolarni tahlil qilish	5 ta
5. Suzish turlari va qoidalari (19 – 21 savollar)		
Suzish turlari va qoidalari	– suzish turlarini bilish – suzish turlarini farqlash – harakat texnikasini tushunish – texnika va natijalarni tahlil qilish	3 ta
6. Sport o'yinlari turlari va qoidalari (22 – 31 savollar)		
Sport o'yinlari turlari va qoidalari	– futbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish – voleybol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish – basketbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish – gandbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish – shaxmat-shashka o'yinlari turlari va qoidalarini bilish – sport o'yinlari turlarini bilish va farqlash – texnik va taktik jihatlarini tushunish – texnika va taktikani o'yin davomida samarali qo'llash – jamoa strategiyasini tahlil qilish – yangi o'yin taktikasi yoki strategiyasini ishlab chiqish va natijalarni baholash – musobaqa qoidalariga muvofiq qo'llash – texnika va taktika bo'yicha xatolarni tahlil qilish – hakamlar ko'nikmalari va adolatli baholay olish	10 ta
7. Sport inshootlari (32 – 35 savollar)		
Sport inshootlari	– sport inshootlari turlarini bilish va farqlash – foydalanish qoidalarini tushunish – mavjud sharoitni tahlil qilish – yangi loyihalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash – inshootdan xavfsiz foydalana olish, texnika xavfsizligini ta'minlay olish	4 ta

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Test soni
I. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta

1.1. Pedagogik-psixologik kompetensiyalar	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, kasbiy faoliyatda zarur pedagogik qobiliyatlar, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘shish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik jarayonni loyihalash (shart-sharoit, texnologiya, o‘zaro munosabatlar) mazmunini, model–loyiha–amaliyot ketma-ketligini, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mantig‘i va bosqichlarini, ta’lim muhitini loyihalashning tayanch shartlari hamda pedagogik dizayn turlarini bilishi va vaziyatlarda qo‘llay olishi	4
1.2. Bolalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash	– “Ilk qadam” dasturining maqsad va tamoyillarini, 0–7 yosh davrida bolaning rivojlanish bosqichlari hamda yosh xususiyatlarini, bolaga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv hamda o‘yin asosida o‘qitish mantig‘ini, shuningdek oraliq/yakuniy kuzatishning maqsadi va tamoyillarini hamda “rivojlanish xaritasi”ning vazifasini bilish; – bola rivojlanish dinamikasini baholay olish, rivojlantirish maqsadlarini aniq belgilash va yondashuvlarni vaziyatlarda qo‘llay olish	3
1.3. Metodik va texnologik savodxonlik	– maktabgacha ta’limda pedagogik faoliyatni loyihalashtirish asoslarini, innovatsion pedagogik texnologiya (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, syujet-rolli o‘yinlar, inklyuziv ta’lim, jismoniy faolligini oshirish, tasviriy va dizayn faoliyati, qurilish va konstruksiyalash mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va boshqalar)larni bilish va faoliyatga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta’limni loyihalash va tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarga baho berish va natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi	3
II. KASBIY STANDART		5 ta

2.1. Kasbiy standart	– kasbiy standart doirasida umumiy qoidalar, standartning maqsad va vazifalari, pedagogga qo‘yiladigan bilim–ko‘nikma–malaka talablari, uning mehnat vazifalari, baholanadigan ko‘rsatkichlar tizimi hamda yakunlovchi qoidalar mazmunini bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi; – kasbiy standart bo‘yicha talab etiladigan umumiy talablar, zarur bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni quyidagi yo‘nalishlarda egallashi zarur: rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, bolalar rivojlanishini kuzatish, oila bilan hamkorlik qilish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi.	5
-----------------------------	--	---

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish	8
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezoni

Test topshiruvchining umumiy natijasini hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javobga 2 ball, noto‘g‘ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish,

imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. “Sogʻlom turmush tarzi asoslari” oʻquv qoʻllanma, N.A.Xudayberdiyeva, “Oʻzkitobsavdonashriyoti” nashriyoti, Toshkent, 2025-yil
2. “Jismoniy tarbiya va sport” darslik, I.A.Tursunaliyev “UMID DESIGN” nashriyoti, 2021-yil
3. “Milliy va harakatli oʻyinlarni oʻqitish metodikasi” oʻquv qoʻllanma, Sh.S.Mirzanov, “Makon savdo print” nashriyoti, 2024-yil
4. “Sport inshootlari” darslik, B.B.Musayev, “Oʻzkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi” nashriyoti, Toshkent, 2021-yil
5. “Shaxmat” oʻquv-metodik qoʻllanma, B.A.Maxmudov, “Zebo prints” nashriyoti, Toshkent-2021-yil
6. “Maktabgacha taʼlimda jismoniy tarbiya” darslik, Toshkent “Oʻzkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi” 2021-yil

VII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari boʻyicha manbalar

1. Alixodjayeva G.S. Инновация в дошкольном образовании. Учебник. – Toshkent, 2024. – С. 284.
2. Muslimov N. va boshq., Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Oʻquv-metodik qoʻllanma. – Toshkent, 2024. – 120 b.
3. Qodirova F. va boshq., Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. - 688 b.
4. Sodiqova Sh.A. va boshq., Maktabgacha taʼlimda taʼlim va tarbiya texnologiyalari. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, 2022.
5. Xalikova U.M., Maktabgacha taʼlimda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. – Buxoro: “Fan va taʼlim” nashriyoti, 2022. -216 b.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. - 504 b.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari toʻgʻridan toʻgʻri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik koʻrish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan koʻra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.